



# IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal



BUXORO  
MUHANDISLIK-  
TEKNOLOGIYA  
INSTITUTI



## ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA YUQORI MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARINI ILMIY-AMALIY JORIY ETISH INNOVATSION TARAQQIYOT POYDEVORI

2024

MAQOLALAR TO'PLAMI

MAXSUS SON  
Iyun-iyul

INDUSTRY  
4.0



Google  
Scholar



Digital  
Object  
Identifier



74-91 xalqaro daraja

ISSN: 2992-8982



# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

## Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

## Bosh muharrir o'rinosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

## Mas'ul muharrir:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna

## Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

## Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokururaturasi boshqarma boshlig'i o'rinosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokururaturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

## Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi,  
O'zR Bosh prokururaturasi huzuridagi IJQK departamenti.

**"ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA YUQORI MUHANDISLIK  
TEXNOLODIYALARINI ILMIY-AMALIY JORIY ETISH  
INNOVATSION TARAQQIYOT POYDEVORI"**

***MAVZUSIDAGI ILMIY MAQOLALAR TO'PLAMI***





# IQTISODIYOTDAGI INNOVATSION O'ZGARISHLAR SHAROITIDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH ORQALI AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISH

**Amrulloev Dadaxon Nurmat o'g'li**

Buxoro muxandislik-tehnologiya instituti  
tayanch doktoranti (1-kurs)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada iqtisodiyotdagi innovatsion o'zgarishlar sharoitida kambag'allik darajasini kamaytirish orqali aholi farovonligini oshirishning nazariy asoslari yoritilgan bo'lib, kambag'allikni qisqartirish uchun taklif va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, kapital, innovatsion jarayon, ishlab chiqarish omillari, innovatsion strategiya, innovatsion tadbirdorlik.

**Abstract:** This article describes the theoretical basis of increasing the welfare of the population by reducing the level of poverty in the conditions of innovative changes in the economy of the Republic of Uzbekistan, offers and recommendations for reducing poverty.

**Key words:** Innovation, capital, innovative process, production factors, innovative strategy, innovative entrepreneurship.

**Аннотация:** В данной статье описаны теоретические основы повышения благосостояния населения за счет снижения уровня бедности в условиях инновационных изменений в экономике Республики Узбекистан, предложения и рекомендации по снижению бедности.

**Ключевые слова:** Инновации, капитал, инновационный процесс, факторы производства, инновационная стратегия, инновационное предпринимательство.

## KIRISH

Hozirgi globallashuv sharoitida jahon xo'jaligi taraqqiyotining asosiy qonuniyati innovatsion yangilanish asosida nomoddiy xo'jalik faoliyatlarining jadal rivojlanishi bilan tavsiflanadigan bilimlarga asoslangan yangi iqtisodiyotga o'tish hisoblanadi.

Jahon xo'jaligida tez-tez ro'y berib turadigan iqtisodiy inqirozlar tufayli vujudga keladigan qiyinchiliklarga qaramasdan ijtimoiy boylikni yaratishning ta'lif, tadqiqot va innovatsiyalarga asoslangan butunlay yangi tizimi shakllanib bormoqda. Dunyoning iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarida yalpi ichki mahsuloti o'sish sur'atining 70-85 % gacha texnologiya, uskunalar, kadrler tayyorlash, ishlab chiqarishni tashqil qilishda o'z ifodasini topgan yangi bilimlar ulushiga to'g'ri keladi.

Yangi sharoitda aynan intellektual kapital qo'yilmaning asosiy qismini yaratadi, uning muhim tarkibiy qismi ilmiy tadqiqot tajriba konstrukturlik ishlariga qo'yilmalar, patent va litsenziyalar, savdo markalari, xodimlarning ilmiy bilimi va malakasi, korxona ichki madaniyati va shu kabilar, ya'ni bozor tomonidan tan olingan va qadrlangan, ashyoviy buyum shakliga ega bo'lmanan obyektlar hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'rganish bilan bog'liq holda jamiyatda kambag'allikni qisqartirish, aholi daromadlarini oshirishning yangicha yo'llariga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonida belgilangan ijtimoiy himoya tizimining inklyuzivligini oshirish, kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash hamda ularning daromadini oshirish va turmush sharoitini yaxshilash, tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish hamda aholi ehtiyojmand qatlaming tadbirdorlik faoliyatini yo'lga qo'yish imkoniyatlarini kengaytirish, hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda bevosita kambag'allikni qisqartirishga alohida e'tibor qaratish vazifalarini belgilanganligi mazkur tadqiqotning dolzarb masalaga qaratilganligidan dalolat beradi.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARI

Iqtisodiy rivojlanish o'z-o'zidan aholi farovonligini bir xilda o'sishiga va tengsizlikning kamayishiga olib kelmaydi. Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib ta'kidlash joizki, bu tushunchalar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lsada, muammolardan faqat bittasini hal qilishga qaratilgan siyosat boshqalarni yomonlashtirishi mumkin. Shunday qilib, kambag'allik, tengsizlik va iqtisodiy rivojlanish tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq hamda bir-biriga ta'sir qiladi. Iqtisodiy o'sishning kambag'allik va tengsizlik darajasiga ta'siri ham salbiy, ham ijobji bo'lishi mumkin.

Xususan, iqtisodiy o'sish iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarining notekis rivojlanishiga, shuningdek, mamlakatning iqtisodiy o'sishning ayrim manbalariga qaramligini chuqurlashtirishga, bu, o'z navbatida, tengsizlikning kuchayishiga olib keladi. Iqtisodiy o'sish manbalariga qaramlikning kuchayishi kapital va malakali mehnat o'rtasidagi bir-birini to'ldirish, texnologik o'zgarishlar bilan bog'liq malakalar va umumiy daromaddagi kapital ulushini oshirish kabi omillar tufayli tengsizlikni oshiradi. Bunda davlat siyosati raqobatni kuchaytirish va korrupsiyani kamaytirishga qaratilishi kerak, bu esa tengsizlikning kamayishiga olib keladi. Boshqa tomondan iqtisodiy o'sish aholi bandligini va biznesni rivojlantirish imkoniyatlarini oshirishga, mamlakat ichida qayta taqsimlash uchun resurslarni ko'paytirishga olib keladi. Bularning barchasi tengsizlik va umuman kambag'allik darajasini pasaytirishga yordam beradi.

Ushbu masalalar bo'yicha Jahan banki tomonidan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, iqtisodchilar Devid Dollar va Aart Kraay iqtisodiy o'sish va kambag'allik munosabatlarni ekonometrik modellar yordamida iqtisodiy o'sishning kambag'allikka ta'sirini o'rganib, aholining eng kambag'al qatlamlari daromadlari umumiyo'rtacha daromad bilan bir xil darajada o'sadi degan xulosaga kelishdi. O'rganishlar shundan dalolat beradiki, bu hodisalar turli mintaqalarda va turli davrlarda kuzatiladi hamda mamlakat darajasida ko'plab omillar bilan belgilanadi, bu, o'z navbatida, kambag'allikni bartaraf etishda iqtisodiy o'sish muhimligini isbotlaydi.

Shunday qilib, so'nggi o'n yilliklarda olib borilgan ekonometrik tahlillar iqtisodiy rivojlanish, aholi o'rtasida tengsizlik va farovonlikning bir xilda o'sishi tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog'liqligini aniq ko'rsatmoqda. Bu uch masaladan faqat bittasini hal qilishga qaratilgan iqtisodiy va siyosiy chora-tadbirlar qolgan ikkitasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ko'rsatdi.

Bu borada Jahan banking sobiq bosh iqtisodchisi Francois Bourguignon "Uchburchak: kambag'allik-iqtisodiy o'sish-tengsizlik" iqtisodiy modelini yaratdi, uning asosi dunyoda kambag'allik darajasining o'zgarishini mamlakatni to'liq daromadlarning o'sishi va daromadlar tengsizligi bilan aniqlash mumkin degan g'oyaga asoslanadi. Bu modelni o'rganishlarga ko'ra, bir tomonidan, daromadlarning umumiy dariasi va iqtisodiy o'sish, ikkinchi tomonidan, mamlakatda taqsimlash va qayta taqsimlanishining o'zgarishi bir-biriga ta'sir qilishini ifoda etadi. Har ikkala hodisa ham, o'z navbatida, mutlaq kambag'allik darajasiga ham, umuman kambag'allikning qisqarishiga ham ta'sir ko'rsatadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ilmiy yondoshuv, qiyosiy tahlil, analiz va sintez, tanlanma, iqtisodiy-statistik tahlil, ekonometrik modellashtirish va aniqlangan model yordamida prognozlash usullardan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Agar hukumat o'z sa'y-harakatlarini faqat yuqorida qayd etilgan maqsadlardan biriga erishishga qaratsa, mutlaq kambag'allikni kamaytirishga erishish juda qiyin bo'ladi. Shu bois hozirgi vaqtida "uchburchak" (kambag'allik, tengsizlik va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik va ularning o'zaro ta'siri) modeli ko'plab xalqaro tashkilotlar tomonidan mamlakatlarning rivojlanish strategiyalarini va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda qo'llanilib kelinmoqda. Kambag'allikning mamlakatning jismoniy yoki inson kapitalini to'plash qobiliyatiga ta'siri salbiydir.

Kambag'allik tuzog'i bozor samarasizligi (qat'iy narxlar, kreditlash normalari, risklar, sug'urta yetishmasligi, kambag'allar, odatda, xavfli iqtisodiy qarorlar qabul qilmaydi) va institutsiyonal muvaffaqiyatsizliklar (fuqarolar nizolari, korrupsiya) tufayli yuzaga keladi. Humberto Lopes va Luis Serven o'zlarining "O'sish uchun juda kambag'al" asarlarida kambag'allikning iqtisodiy o'sishga ta'sirini ekonometrik tahlil qilib: "Kambag'allikning iqtisodiy o'sishga sezilarli salbiy ta'siri bor", – degan xulosaga kelishdi va bu orqali kambag'al aholi sonining 10 foizga ko'payishi iqtisodiy o'sishning 1 foiz punktg'a pasayishiga olib kelishini isbotlashdi.

Hozirgi kunda dunyo bo'yicha eng ko'p maosh oladigan ishchilarning 10 foizining daromadi eng kam maosh oladigan ishchilarning 10 foizining daromadidan o'n baravar ko'pdir. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, tengsizlikning iqtisodiy o'sishga ta'siri ham ijobji, ham salbiy bo'lishi mumkin. Ijobji ta'sir daromadlar tengsizligi va boyliklarning tengsizligi aholini raqobat, jamg'arma va investitsiyalarni rag'batlantirishi bilan bog'liq. Tengsizlik innovatsion rivojlanish va kichik biznes rivojlanishini rag'batlantiradi.



Salbiy ta'sir quyidagi omillar bilan bog'liq: imkoniyatlarning tengsizligi ta'lif va ish tanlashga salbiy ta'sir qiladi, davlat institutlari hamda siyosatining samarasizligiga va korrupsiya, fuqarolik nizolarining o'sishiga yordam beradi, shuningdek, aholi tomonidan davlat hokimiyyati organlariga bo'lgan ishonch darajasini pasaytiradi. Kambag'allikni kamaytirishga moliyaviy islohotlar bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Bu, odatda, mamlakat iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlarga hamda islohotlar turiga bog'liq. Bilvosita ta'sir ko'p kanallar orqali kuzatiladigan islohotning sof samarası oxir-oqibat uy xo'jaligi darajasida xatti-harakatlarning o'zgarishiga olib keladigan holatlarda muhim bo'lishi mumkin. Kuchliroq bilvosita ta'sir ko'rsatadigan islohotlar:

- makroiqtisodiy va fiskal islohotlar: pul-kredit islohotlari infliyatsiya va foiz stavkalariga, tashqi siyosatdagi islohotlar mamlakatdagi to'lov balansi va zaxiralaraiga hamda fiskal islohotlar fiskal taqchillikka ta'sir qiladi;
- tashqi savdo va valyuta kursi islohoti bilan bog'liq islohotlar: tariflar va tarifsiz to'siqlarni isloh qilish hamda valyuta kursini moslashtirish;
- qishloq xo'jaligidagi islohotlar: tartibga solinadigan narxlarni tugatish hamda ichki subsidiyalar va soliqlardagi o'zgarishlar;
- moliya sektoridagi islohotlar: foiz stavkalarini liberallashtirish, kredit taqsimoti, kirish to'siqlarini kamaytirish va tartibga solish islohotlari.

Shuningdek, turmush darajasini oshirishga kamroq bilvosita ta'sir ko'rsatadigan islohotlar:

- davlat moliyasini isloh qilish: davlat xarajatlarini taqsimlash va darajasidagi o'zgarishlar, davlat daromadlari darjasasi hamda tarkibidagi o'zgarishlar, soliq ma'muriyatichilagini takomillashtirish;
- yer islohoti: yersizlar foydasiga taqsimlash, yerga egalik qilish, ayriboshlash va meros qilib olish huquqining qonuniyligi o'zgarganda;
- kommunal iqtisodiyotni isloh qilish: davlat communal korxonalarini qayta qurish va xususiy ishtirokni oshirish;
- moliya sektoridagi islohotlar: davlat banklarini xususiylashtirish yoki yopish, kam ta'minlanganlarga xizmat ko'rsatadigan moliyaviy institutlarni qo'llab-quvvatlash;
- xususiylashtirish: aktivlarni ijaraga berish va xususiy boshqaruv shartnomalari va to'liq xususiylashtirish;
- davlat xizmatini qisqartirish: ishdan bo'shatish, ish haqini kamaytirish va davlat xizmatlarini markazsizlashtirish;
- ijtimoiy ta'minot: maqsadli pul va naqd pul o'tkazmalaridagi o'zgarishlar, muhtoj guruhlarga yordam berish hamda ijtimoiy nafaqalar;
- pensiyalar: milliy sxemalarni qisqartirish, nodavlat pensiya ta'minotini oshirish, eng kambag'al pensionerlarga pul yordami kabi ijtimoiy pensiyalarni joriy etish.

Ta'kidlash joizki, fiskal islohotlar aholi turmush darajasiga ta'sir ko'rsatadigan inson kapitalini rivojlantirish, mehnat bozori, investitsiyalar va soliq kabi uchta asosiy kanalni ajratib ko'rsatish mumkin.

Moliyaviy siyosatning muhim vazifasi – bu mamlakat fuqarolariga rivojlanish va ularning to'liq salohiyatiga erishish uchun teng imkoniyatlarni ta'minlashdan iborat, chunki mehnat resurslari mamlakat barqaror rivojlanishining asosiy tarkibiy qismidir.

Ta'lif darajasining pastligi va tibbiyotdan foydalanishning cheklanganligi aholining yanada qashshoqlashishiga hamda tengsizlikning kuchayishiga olib keladi.

Shuning uchun, ayniqsa, aholining kam ta'minlangan qatlamlari uchun ta'lif va tibbiyot mavjudligini ta'minlash soliq-byudjet siyosatining muhim yo'nalishi bo'lishi kerak. Bu boradagi islohotlar ta'lifga davlat sarmoyasini ko'paytirish, bepul asosiy tibbiy xizmatlarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Bandlik va ishsizlik darajasiga ta'sir aholi daromadlariga bevosita ta'sir qilishning asosiy kanallaridan biridir. Bu borada mehnatga haq to'lanadigan soliqlarning kamayishi mehnatga haq to'lashning yakuniy miqdorining oshishiga olib keladi va buning natijasida bandlik o'sishini rag'batlantiradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, turmush darajasini oshirish kambag'allikni qisqartirishga, ishsizlik darajasini pasaytirishga, mehnat bozoriga qo'shimcha faol dasturlarni joriy etishga, aholini qo'llab-quvvatlash bo'yicha manzilli ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqishga, davlatning maqsadli dasturlari loyihasini takomillashtirishga yordam beradi. Shundan kelib chiqqan holda ta'kidlash mumkinki, kambag'allikni qisqartirish tadqiqotida ekonometrik modellarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari sifatida omillarning ko'pligi (aholining qarishi va migratsiya o'zgarishlarining bugungi sharoitida yoshlar, ayollar, keksa ishchilar), past malakali ishchilar va ularga mos kuzatuvlar soni (yillik statistik ma'lumotlar, miqdor ko'rsatkichlardan tashqari sifat ko'rsatkichlarining mavjudligi), ishlab chiqilgan dastur hamda farmonlarning ta'sirini keltirish mumkin. Bu, o'z navbatida, kambag'allikni qisqartirish tadqiqotida ekonometrik modellarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlarga egaligini tasdiqlaydi.

**Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati**

- Падалкина Л.С., Клочков В.В. Мировая экономика: учебник. –М.: Проспект, 2012. – 240 с.
- Балабанов И.Т. Валютные операции / И.Т. Балабанов. –М.: Финансы и статистика, 2022. –144 с.
- Гилберт М. В поисках единой валютной системы / М. Гилберт. – М.: Прогресс, 2021. – 349 с.
- Холопов А.В. Валютный курс как инструмент макроэкономического регулирования // Мировая экономика и международные отношения. –2014. – № 12. С. 21–26.
- Абдуллаева Ш.З. Халқаро валюта кредит муносабатлари. Дарслик. Тошкент “IQTISOD-MOLIYA”, 2005 йил, 588 бет.
- Бобакулов Т.И., Исаков Ж.Я., Абдуллаев У.А., Алимардонов И.М., Абраев Н.К. Тошкент “IQTISOD-MOLIYA”, 2018 йил, 358 бет.



# MUNDARIJA

Muhandislar – taraqqiyot tayanchi .....	4
<b>Sadoqat Siddiqova</b>	
Исследование влияние азотсодержащей добавки на процесс окисления битумов .....	9
<b>Юлдашев Норбек Худайназарович</b>	
Ziyorat turizmning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ta'siriga oid muammolar yechimida terminologiyaning ahamiyati.....	14
<b>Malohat Jo'rayeva, Shavkat Bafoyev</b>	
Ekspluatasiya davrida kompressor moylarining ishlashi va fizik-kimyoviy xususiyatlari o'zgarishining o'ziga xosligi .....	19
<b>Xo'jaqulov Aziz Fayzullayevich</b>	
Tabiiy gazning oltingugurtli qo'shimchalarining fizik-kimyoviy xossalarni tadqiq qilish .....	24
<b>Muxtor Jamolovich Maximov, Ramazonov Bahrom G'afurovich</b>	
Автоматическое формообразование пневматических опалубок бикубическими сплайнами.....	30
<b>Ядгаров Ўкташ Турсунович, Ахмедов Юнус, Асадов Шуҳрат Кудратович</b>	
Optimizing the efficient transport of mass from alternative energy sources and the process of heat and mass exchange during the processing of spices .....	37
<b>Khayrullo Djurayev Fayzievich, Mizomov Mukhammad Saydulla ugli</b>	
The role of digitalization in regional development and the utilization of their potential for sustainable development .....	44
<b>Jafarova Khilola Khalimovna</b>	
Разработка новых структур и способов выработки комбинированного трикотажа с повышенной формоустойчивостью на базе интерлокного переплетения .....	48
<b>Гуляева Г.Х., Мукимов М.М., Каримова Н.Х.</b>	
Кислотная активация навбахорской бентонитовой глины .....	53
<b>Хужакулов Азиз Файзуллаевич, Хотамов Кобил Ширинбой угли</b>	
Mustaqil ta'limdi tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish.....	58
<b>Murodova Zarina Rashidovna, Jo'raqulova Mehrangez Orifovna</b>	
Kislородли birikmalar asosida olingan antidental sion kompozitsiyalarning ai-80 avtomobil benzinini detonatsion barqarorligiga ta'sirini tadqiq qilish .....	66
<b>Saloydinov Aziz Avazovich</b>	
Buxoro viloyatining investitsion jozibadorligini oshirish yo'llari.....	70
<b>Akramova Obida Qosimovna</b>	
Исследование механико-технологических параметров глубокого рыхления почвы подпахотного горизонта.....	77
<b>Н.С.Бибутов, Ф.Ю.Хабибов, Ш.М.Муродов</b>	
Разработка экспериментальной установки энергосберегающего измельчителя фруктов и овощей для производства сок с мякотью.....	85
<b>Ф.Ю. Хабибов, X.X. Ниязов</b>	
Tуризм: типология и классификация.....	95
<b>Малоҳат Мухаммадовна Жураева, Марупова Гульноз Умарджоновна</b>	
"Yashil energetika"ni rivojlantirishni rag'batlantirishning me'yoriy ko'rsatkichlarini ishlab chiqish.....	99
<b>Sadullayev Nasullo Ne'matovich, G'afurov Mirzoxid Orifovich, Ne'matova Zuxra Nasullo qizi</b>	
Umumiy ovqatlanish korxonalarida xizmat ko'rsatish sifatini oshirishda diversifikatsiyalangan milliy hunarmandchilik mahsulotlaridan foydalanishning ahamiyati.....	108
<b>Ruziyeva Gulinoz Fatilloyevna, Raximova Dilorom Sulaymonovna</b>	
Polimerlar ishlab chiqarishda hamda ularni qayta ishlashda hosl bo'ladigan chiqindilardan samarali foydalanish jihatlari .....	114
<b>Raxmatov Sherzod Shuxratovich, Sadirova Saodat Nasreddinovna, Niyozova Rano Najmiddinovna, Axmedov Hafiz Ibroimovich</b>	
Kichik quvvatli, energiya samarador shamol turbinalari ko'rsatkichlarining tahlili.....	118
<b>I.I. Xafizov, F.F. Muzaffarov, M.Sh. O'ktamov</b>	



Анализ ингредиентов пищевых продуктов с помощью нейронной сети ..... <b>Мухамдиева Зарина Баходировна</b>	127
Dizel moylarini reologik xossalarini tatqiq qilish ..... <b>Xo'jaqulov Aziz Fayzullayevich, Toshov Mavzuddin Sa'dullo o'g'li</b>	132
Анализ состав и свойства нефтяных остатков и битумов ..... <b>Юлдашев Норбек Худайназарович, Махмудов Мухтор Жамолович, Комолов Руслан Илхомбекович</b>	136
Kambag'allikdagi tarkibiy o'zgarishlarning aholi turmush forovonligi darajasiga ta'sirining ahamiyati ..... <b>Xayitov Sherbek Naimovich</b>	141
Maxsus kiyimlar tikishda foydalanimadigan gazlamalar tahlili ..... <b>Sayidova MaftunaHamroqul qizi</b>	148
Production of tomato paste ..... <b>Ergasheva Muhabbat Komil kizi</b>	153
Problems of development of research and innovative activities in higher educational institutions ..... <b>Rakhimova Dilnoza Davronovna, Alimova Ruxsora Xamzayevna</b>	156
O'zbekiston mehnat bozorida bandlikning innovatsion turlarini shakllantirish va rivojlantirish omillari ..... <b>Avezova Shaxnoza Maximjonovna</b>	159
Dual ta'lilda keys texnologiyasini qo'llash ..... <b>Sariyev Rustam Bobomuradovich</b>	166
Mintaqada bank-moliya tizimini rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslari ..... <b>Jumayev Bahodir Raxmatullayevich</b>	169
Chiqindi AKM katalizatorlardan kobalt va molibdenni ajratish usuli ..... <b>Tursunova F. J., G. R. Bozorov</b>	174
Hududlarning mutanosib barqaror rivojlanishini ta'minlash imkoniyatlari (ijtimoiy rivojlanish va yo'nalishlar) ..... <b>Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich</b>	180
Sanoat korxonalarining investitsiya faoliyatini samarali boshqarish muammolari ..... <b>Kudratov Muhammad Rustamovich</b>	185
Iqtisodiyotdagi innovatsion o'zgarishlar sharoitida kambag'allikni qisqartirish orqali aholi farovonligini oshirish ..... <b>Amrulloev Dadaxon Nurmat o'g'li</b>	190
Mintaqada barqaror rivojlanishni ta'minlashda raqamli texnologiyalarning o'rni ..... <b>Jafarova Hilola Xalimovna</b>	194
Nordon gazlarni aminli tozalash jarayonida ko'p so'ndirgichlarning kimyoviy ta'sir mexanizmi ..... <b>Muxtor Jamolovich Maximov, Ramazonov Bahrom G'afurovich</b>	198
Uglevodorodlarning fizik-kimyoviy tahlili ..... <b>Abduraxmonov Olim Rustamovich, Islomov Alisher Nurillayevich</b>	207
Iqtisodiyotdagi innovatsion o'zgarishlar sharoitida kambag'allikni qisqartirish orqali aholi farovonligini oshirish ..... <b>Amrulloev Dadaxon Nurmat o'g'li</b>	213

# Yashi

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

### 2024. Maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

#### Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

